

Korxonalarning atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq faoliyati o'rganilmoqda

// 05 May 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korxonalarning-atrof-muhit-muhofazasi-bilan-bog-liq-faoliyat>



"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da ekologik barqarorlikni oshirish hamda muammolarni hal etish maqsadida Jamiyatning Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti Ekologiya va "yashil" iqtisodiyot bo'limi xodimlari 1-2-may kunlari "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda bo'lishdi.

Dastlab mutaxassislar korxonada shlam havzasining ishchi holati va suv tahlillari hamda chang gaz tozalash uskunalarning ishlash holati (aspiratsiya tizimlari) va boshqa texnik ko'rsatkichlarini o'rganib chiqishdi.



2-bosqich shlam havzasi atrofida "O'zbekgidrogeologiya" DM tomonidan 15 ta nazorat quduqlari burg'ulanib, hozirgi kunda jamiyat ekoanalitik laboratoriyasi laborantlari tomonidan haftaning har chorshanba kuni, viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi mas'ullari tomonidan esa har oyda bir marotaba namunalar olinib fizik-kimyoviy tahlillar o'tkazib borilmoqda.



Shuningdek, "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ko'zdan kechirildi.

Loyiha doirasida korxonada va unga tutash hududlarda shu yilning bahor mavsumida jami 50 000 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. 19.2 ga yer maydonlarida "Yashil belbog'"lar barpo etildi.



Korxonada faoliyatini ekologik jihatdan o'rganishlar natijasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada yaxshilash va tizimning barqaror ishlashini taminlash yuzasidan mutassaddilarga tegishli ko'rsatmalar berildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati